Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

UDK 304.44
ORCID 0009-0003-0443-9045

YOSHLARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHNING MAZMUN-MOHIYATI VA ISTIQBOLLARI

Dusyarov Xudoymurot Chorshanbiyevich
Termiz davlat pedagogika instituti. Pedagogika fanlari nomzodi.,dotsent.
E-mail: xudoymurotdusyarov@mail.com.
Dusyarov Salimjon Xudaymuratovich
Termiz davlat universiteti, Sport boshqaruvi kafedrasi o'qituvchisi.
E-mail: salimjonjavohir@mail.com.

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy siyosatida shaxs manfaatlari va ta'lim ustuvorligi orqali insonning konstitutsiyaviy huquqlaridan biri – ta'lim ehtiyojlarining qondirilishi va ularning kasb-hunarga bo'lgan intilishlarini har jihatdan, ya'ni yoshlarning qobiliyatlari va imkoniyatlarini, o'ziga xos individual xususiyatlarini o'rganishni, yo'naltirishni va rivojlantirishni talab etadi. Shu sababli pedagogik amaliyotda o'quvchi-yoshlarning kasb-hunarga yo'naltirishning rivojlanish darajasini hamda ularning intellektual qobiliyatlari va boshqa sifatlarini tezkor diagnostika qilishga talab ortib bormoqda. Yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishning shakllanish jarayonini, uning aqliy rivojlanishi, tarbiyalanganlik darajasini va tafakkur qobiliyatini bilmasdan turib, ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish ko'plab muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Ushbu maqolada yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishning mazmun-mohiyati va istiqbollari, kasb tavsiflari, kasblarning rivojlanish bosqichlari haqida atroflicha ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Yoshlar, kasb, hunar, kasbga yo'naltirish, kasb etikasi, kasb mazmuni, kasb mohiyati, kasb kompetensiyalari, kasb haqida axborot, kasb haqida maslahat, kasbga layoqatini aniqlash.

СУТЬ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОТВЛЕЧЕНИЯ МОЛОДЫХ ЛЮДЕЙ

Аннотация: В социальной политике Республики Узбекистан одним из конституционных прав человека является удовлетворение его образовательных потребностей и стремлений к профессии на основе приоритета индивидуальных интересов и образования, что требует изучения, направления и развития способностей и возможностей молодежи, ее неповторимых индивидуальных особенностей во всех аспектах. Поэтому в педагогической практике возрастает потребность в экспресс-диагностике уровня развития профессиональной направленности учащихся, а также их интеллектуальных способностей и других качеств. Без понимания процесса формирования профессиональной ориентации молодых людей, их умственного развития, уровня воспитанности и мыслительных способностей эффективная организация образовательного процесса может вызвать множество проблем.

В статье подробно изложены суть и перспективы профессиональной ориентации молодежи, должностные инструкции и этапы освоения профессий.

Ключевые слова: Молодежь, профессия, ремесло, профориентация, профессиональная этика, профессиональное содержание, профессиональная сущность,

профессиональные компетенции, профессиональная информация, профессиональные советы, оценка профессиональных способностей.

THE ESSENCE AND PROSPECTS OF PROFESSIONAL DIVERTING OF YOUNG PEOPLE

Annotation. In the social policy of the Republic of Uzbekistan, one of the constitutional human rights is the fulfillment of an individual's educational needs and career aspirations, based on the priority of personal interests and education. This necessitates the identification, guidance, and development of young people's abilities and potential, as well as their unique individual characteristics in all aspects. Therefore, in pedagogical practice, there is an increasing need for rapid diagnostics of students' level of professional orientation, intellectual abilities, and other personal qualities. Without a clear understanding of the process of forming young people's professional orientation, their intellectual development, level of upbringing, and cognitive abilities, the effective organization of the educational process may face numerous challenges.

Keywords: Youth, profession, craft, career guidance, professional ethics, professional content, professional essence, professional competencies, professional information, professional advice, professional aptitude assessment.

KIRISH. Mamlakatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, o‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘naltirish tizimini rivojlantirish va takomillashtirish vazifalarini qo‘ymoqda. Kasb tanlashga yo‘naltirish tizimini takomillashtirish ish o‘rinlarini bo‘shab qolish jarayonlari jadallashadigan va ishchilarning malakalariga qo‘yiladigan sifat talablari oshib borayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida kasb va kasblarning turlarini to‘g‘ri tanlash va yo‘naltirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu tufayli kasblar, ularning turlari, tasniflanishi va yoshlarni kasbga yo‘naltirish ishlari tizimli tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday ishlarni samarali va tizimli tashkil etishda O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi farmonining 3-bobida “kasb-hunarga o‘qitishni takomillashtirish va ishlab chiqarishning ko‘plab jarayonlarini avtomatlashtirish tendensiyalarining rivojlanayotganligini inobatga olgan holda o‘quv-ishlab chiqarish majmualarida foydalaniladigan kasb-hunar ta’limining o‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqish[1]”, “Kasbga o‘qitish ko‘lamini 2 baravarga oshirish, jami 1 million nafar ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o‘qitish, umumta’lim maktablarining kasb o‘rganish istagidagi bitiruvchilarini davlat tomonidan kamida bir kasbni egallashiga ko‘maklashuvchi tizimni joriy etish[2]”vazifalari belgilab qo‘yilgan.

Mustaqil O‘zbekistonni rivojlantirishning ma’naviy-axloqiy negizlari hisoblangan umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatlilik, xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, insonning o‘z imkoniyatlarini erkin ro‘yobga chiqarishi, vatanparvarlik kabilar pedagoglar madaniyatining asosini tashkil etishi bilan birga umumiy o‘rta ta’lim jarayonida to‘liq o‘z ifodasini topishi kerak. Bu esa texnologiya fani o‘qituvchilari va umumta’lim maktablarida faoliyat yuritayotgan mutasaddi xodimlarning ma’naviy-axloqiy qiyofasi, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishdagi sa’y-harakati, madaniyati, ma’naviyati va o‘z sohasini yetuk bilimdoni bo‘lishiga bog‘liq.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Yosh avlodni kasbga yo‘naltirish ishlarida bir qancha ilmiy ishlar, ilmiy izlanishlar, dissertatsiyalar qilingan va

adabiyotlar chop etilgan. Jumladan Sh.S.Sharipov va boshqalar Texnologiya VII sinf o'quvchilari uchun darslik, Termiz davlat pedagogika instituti dotsenti X.Ch.Dusyarovning "Kasbga yo'naltirish diagnostikasi" nomli o'quv qo'llanmasida, O'.Q.Tolipov, Sh.S.Sharipov, P.Q.Holmatov "Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash texnologiyasi" nomli adabiyotida, Sh.S.Sharipov "Talabalar ixtirochilik ijodkorligini shakllantirishning pedagogik sharoitlari". (Mehnat va kasb ta'limi fakultetlari misolida) dissertatsiyalarida yoshlarni kasbga yo'naltirish, to'g'ri kasb tanlash, kasb turlari va tasniflari haqida atroflicha ma'lumotlar yoritilgan. Ushbu ma'lumotlardan kelib chiqqan holda bu borada yoshlarni kasbga yo'naltirish ishlarini rivojlantirish bosqichlari, yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishda kasb va kasb turlarining mazmun-mohiyati va istiqbollari haqida ma'lumotlar bilan boyitish, kasbiy axborot, kasbiy maslahat, kasb nuqtayi nazardan tanlov va saralab olish, kasbiy moslashish jarayonlari haqida umumiy va zarur bo'lgan ma'lumotlar haqida batafsil to'xtalamiz.

Kasbga yo'naltirish bu – har bir shaxsning o'ziga xosligi, individual (yakka) xususiyatlari va bozor iqtisodiyoti, ishlab chiqarishda, mehnat bozorining talab va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, talabgorning kasbiy o'zligini bilishi, kasbiy o'rnini topishi uchun shaxsga ta'sir etishning ilmiy asoslangan shakl, usul va vositalar tizimidir.

U insonning kasbiy qiziqishi va imkoniyatlari hamda jamiyatning aniq bir kasbiy faoliyat turiga ehtiyojlari mos kelishiga intilish va erishishga yo'naltirilgan. O'sib kelayotgan yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashga, ularni har tomonlama yetuk va barkamol qilib o'stirish hamda rivojlantirishning shart-sharoitlari sifatida qaraladi. Bu shaxsning ma'naviy-ma'rifiy, aqliy va axloqiy, mehnat, estetik, ruhiy-irodaviy va jismoniy tarbiyasi, ya'ni barcha o'quv-tarbiyaviy jarayon bilan uzviy birlikda amalga oshiriladi[4].

Yosh avlodni kasbga qiziqtirish va to'g'ri yo'naltirish lozim. Bu borada kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil qilish va rivojlantirishning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

Birinchi bosqich (maktabgacha ta'lim yoshi MTM) - bunda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda (katta guruh) mehnat va mehnat turlari bilan band bo'ladigan shaxslar va insonlarga, ularning mashg'ulotlariga, shuningdek, iste'dod va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda qo'llaridan keladigan faoliyat turlari bo'yicha dastlabki mehnat ko'nikmalarini ijobiy, hissiy va ta'sirchan shakllantirish.

Ikkinchi bosqich (I-IV sinflar) – kichik maktab yoshda bo'lgan o'quvchilarda bilishga oid va turli o'yinlar ko'rinishidagi ijtimoiy-hayotiy foydali mehnat faoliyatini amalga tadbiq qilish va shu orqali, mehnat va kasbga hurmat, uning inson hayotida va jamiyatda tutgan o'rnini bilish va anglash, ota-ona, qarindoshlarning kasblariga hamda ommaviy kasblarga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish.

Uchinchi bosqich (V-VII sinflar) - o'smirlarda kasbga yo'nalganlik bo'yicha kasb tanlash, jamiyatda o'z o'rnini topish bilan bog'liq bo'lgan qiziqish va moyilliklari, qobiliyati, iste'dodi, ijtimoiy qadriyatlarning izlanuvchan va sinchkov ko'rinishlarini shakllantirish.

To'rtinchi bosqich (VIII-IX sinflar) - o'quvchilarda kasbiy o'zlikni bilish va anglashni shakllanish vaqti davri, ya'ni o'quvchilarni aniq bir kasbni tanlashning shaxsiy ma'noga egaligini tushunib yetishi, qadriyatlar to'g'risidagi o'z tasavvurlarini, faoliyat sohasini tanlashning jamiyat maqsadlari bilan taqqoslash olishini shakllantirish davri.

Beshinchi bosqich (akademik litsey va kasb-hunar maktablarida tahsil olayotgan birinchi kurs o'quvchilari) - ijtimoiy-kasbiy

maqomini aniqlash, ya'ni aniq bir mehnat faoliyati sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalar haqida har tomonlama tasavvurlarni shakllantirish, ularni o'zlashtirishga kirishish va intilish, ishlab chiqarish mehnat jamoasining tartiblari, ichki qoidalari va qadriyatlarga qo'shilishni shakllantirish davri.

Oltinchi bosqich (kasb-hunar maktablarining oxirgi kurs o'quvchilari, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar) - kasb tanlash va kasbiy faoliyatga kirishish. Bu kasbiy faoliyatga jiddiy tayyorgarlik ko'rish, mas'uliyat bilan yondashish hamda mehnat jamoalaridagi ish, mehnat faoliyati va tajribalarning shakllanish davri.

Yettinchi bosqich (katta yoshdagi ma'lum bir kasb va mehnat turi bilan band bo'lgan shaxslar va ishsizlar) - har bir shaxsning shaxsiy imkoniyatlari va oldingi kasbiy-ijtimoiy tajribalarini hisobga olgan holda, zarurat bo'lganda boshqa kasb turi va faoliyatga qayta yo'naltirish.

Demak, o'zini-o'zi amalga oshirish uning barcha jarayonlari mobaynida o'zini boshqarish tavsifiga ega bo'ladi. U o'qituvchining professional faoliyatda o'z oldiga faol va aniq mustaqil maqsadlar qo'yish, ularga erishish uchun maqbul usullarni tanlash, o'zini nazorat qilish, subyektiv muhim loyihalarni yaratish va amalga oshirish qobiliyatlarida o'z ifodasini topadi.

O'qituvchilar pedagogik faoliyatda o'zini-o'zi rivojlantirish kompetentligi haqida ko'plab adabiyotlarning ta'lim modellarida umumiy tavsifnoma va batafsil ta'riflar bayon etilgan. Ushbu modellarda konseptual asoslari belgilab berilgan, ta'lim tamoyillari ajratib ko'rsatilgan, o'qituvchining pedagogik faoliyatda o'zini-o'zi rivojlantirish kompetentligini takomillashtirish malakalari shakllanishiga yo'naltirilgan o'quv jarayonining qurilish texnologiyasi bayon etilgan[6]. O'qituvchining vazifalaridan biri muammolashtirilgan bilimlarni to'g'ri yechish va to'g'ri foydalanish, metodik tomondan maslahat savollar va topshiriqlarni rasmiylashtirishda pedagogik maslahat berish. Rivojlanishni ta'minlovchi o'zini-o'zi rivojlantirish kompetentligi ta'lim jarayoni asosiy komponentlarining quyidagi uchta blokiga asoslanadi:

- pedagogik faoliyatda o'zini-o'zi rivojlantirish kompetentligi asoslarini shakllantirishga yo'naltirilgan (motivatsion - o'zini-o'zi namoyon etish bloki);
- pedagogik faoliyatda o'zini-o'zi rivojlantirish kompetentligi namunasi yaratilgan (operatsional bloki);
- professional faoliyatda o'zini-o'zi rivojlantirish kompetentligi tajriba konseptualizatsiyasi (refleksiv bloki).

Kasb etikasi-kasblarga xos axloq haqidagi ta'limot bo'lib, umumiy axloqiy tamoyil va me'yorlarni, turli kasblarning xususiyatlarini hisobga olib, tatbiq etishidan iborat[3].

Kasb etikasi – jamiyat tomonidan qabul qilingan axloq qoidalari va odob normalarini kishilar va shaxslarning ixtisosliklariga nisbatan tadbiq qiladigan, kasbiy burch, shon-sharaf, kasb sha'ni, or-nomus, qadr-qimmati kabi xatti-harakatlar jamlanmasi, umumiy odob-axloqning insonlar (kishilar) kasb-koridagi o'ziga xos ko'rinishidir. Kasb etikasi atamasi kishilar o'rtasidagi kasbiy faoliyat bilan bog'liq munosabatlarga ma'naviy va ma'rifiy tus beradigan xulq-atvor kodeksi, deyish ham mumkin. Kasb etikasi umumiy etikaning bir qismi bo'lib, har qanday alohida, maxsus, konkret narsa singari umumiy narsadan faqat o'ziga xos shakl o'zgarishi bilangina emas, balki, umumiy narsani o'z ichiga ololmaydigan o'zigagina xos jihati bilan boyroq. Umuman olganda, kasb etikasi barcha kishilar uchun birdek taalluqli bo'lmagan, balki muayyan kasb va mehnat bilan shug'ullanuvchi shaxslargagina tegishli ijtimoiy xulq- atvor qoidalari, me'yorlaridir. Masalan:

Pedagogning kasb etikasi. Pedagog, avvalo, nima uchun bu kasbni tanlaganini teran anglamog‘i, insonlarni qanday tarbiyalash kerakligini tushunib yetmog‘i kerak. Bu esa pedagogik faoliyat va etikaning asosiy omilidir. Kasb etikasi qonun-qoidalari mehnat faoliyati jarayonida shakllanib, takomillashib boradi. Kasbiy omilkorlik, o‘z ishini yaxshi bilish, qaysi kasb bo‘lishidan qat’iy nazar, axloqiy me’yorlarning boshlanishidir va h.k.[5].

Maxsus jihat umumiy narsaga to‘la-to‘kis kirmasligi sababli professional, kasbiy etikaning tamoyil va me’yorlari nisbatan mustaqil. Shunga ko‘ra, professional, kasbiy etikaning o‘zi ham nisbatan mustaqil.

Kasblar mavjudligi kishilar o‘rtasidagi professional aloqalarning o‘ziga xos xususiyatlarini paydo qiladi. Mehnat obyektiga, mehnat qurollariga, usul va vazifalariga qarab, kishidan muayyan turdagi harakatlarni, ritmlarni, metodlarni, psixologik reaksiyalarni talab etadigan vaziyatlarning takrorlanmas o‘ziga xosligi vujudga keladi. Har bir kasbning o‘ziga xos usuli paydo bo‘ladiki, inson o‘zining subyektiv tuyg‘ular olami, intilishlari, axloqiy fikri bilan unga jalb bo‘ladi.

Fanga oid kompetensiyalar:

To‘g‘ri va ongli kasb tanlash, ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyasi: o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish tizimi, kasblar va ularning tasniflagichi, tabiiy va aniq fanlar yo‘nalishidagi kasblar, ijtimoiy fanlar yo‘nalishidagi kasblar, filologiya yo‘nalishidagi kasblar, amaliy fanlar yo‘nalishidagi kasblarni farqlay olish.

To‘g‘ri va ongli kasb tanlash, ijtimoiy-hayotiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyasi: texnologiya ta’limi mazmunini kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari bilan uzviyligini bilish, kasblar tasnifini, kasblarda mehnat turlariga aniq ta’rif bera olish, kasblarning guruhlari, turkumlari, tiplari va xususiyatlarini farqlay olish, kasb-hunar egallashda inson salomatligiga qo‘yiladigan talablar, inson salomatligiga mos keluvchi kasb-hunar egallash turlari va yo‘llari, kasbga yaroqlilik va kasbga yaroqsizlik, mos kelish, havas haqidagi tushunchalarni ongli anglay olish, O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim tizimi, ta’lim turlari va ularning uzviyligi, ularni integratsiyalash Akademik litseylar va Kasb-hunar maktablarining yo‘nalishlari, ularning bir-biridan farqli tomonlari, umumiy tomonlari haqida tushunchaga ega bo‘lish.

Kasblarni tasniflash bo‘yicha topshiriqlarni bajara olish. Turli sohalarga oid kasblar ro‘yxatini tuza olish. Tanlangan kasb turlarini egallashda inson salomatligiga qo‘yilagan talablar haqida referatlar tayyorlay olish, esselar yozish, kasb tushunchasi va uning nima ekanligini bilish, ta’rifini bilish, kasbni to‘g‘ri tanlashning mohiyati va istiqbolini anglay olish, kasb tanlashda shaxs, kasbiy qiziqish, moyillik, qobiliyat va o‘quvchining imkoniyatlarini ongli tushuna olish, kasbga yaroqlilikni belgilash va kasbga moyillikni tarbiyalash usullarini qo‘llay olish, qiziqish va qobiliyalarini aniqlash usullarini qo‘llay olish, kasb tanlashga qo‘yiladigan talablarni bilish va unga amal qila olish, kasbiy o‘zgaruvchanlik va tanlov tushunchasini anglay olish.

Tanlangan kasb-hunarga doir ma’lumotlar to‘play olish va tahlil qila olish. **“Men tanlagan kasbni egallashdagi kelgusi rejalarim”** mavzusida kreativ ish yoki taqdimot tayyorlay olish, kasbga tanlashga yo‘llashda mahalla, oila va maktab hamkorligini tushunish, buyum va mahsulot turlarini, ularni tayyorlash jarayonini bilish va ishlov berish usullarini bilish, texnologik loyihalash hamda amalga oshirish kompetensiyasi: raqamli hisoblash qurilmalarida qo‘llaniladigan sxemalar, sanoat robotlari haqida tushuncha, sanoat robotlari va monipulyatorlarni boshqarish uchun elektr yuritmalarni farqlay olishni bilish.

Psixomotor, funksional hamda amaliy faoliyat turlarini bajarishdagi operatsion kompetensiyasi: mustaqil ishlash, ijodiy yondashish, kreativ fikrlay olish, kasbiy odob-axloq qoidalarini egallash va unga rioya qila olish.

O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi: o'zining qiziqishlariga qarab qobiliyatlarini namoyon qila olish, ongli kasb tanlash, halollik, to'g'rilik kabi insoniy fazilatlarga ega bo'lish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi: inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalana olish.

Kasbga yo'naltirish – kishi va shaxslarning kasbiy qiziqishi, layoqati, moyilligi va imkoniyatlari hamda jamiyatning aniq bir kasbiy faoliyat turiga ehtiyojlarining mutanosibligidir.

Kasbga yo'naltirish quyidagilarni o'z ichiga oladi: Kasbga oid axbarot, Kasbga oid maslahat, kasbiy tanlov va saralash, kasbga moslashish.

Kasbiy axbarot – bu kishilarning ma'lum bir kasbni egallashlari uchun xohishi bo'lgan shaxsga, turli kasb va mutaxassisliklarni egallash shakl va sharoitlariga, kasbiy ko'nikma va malakalarning o'sish imkoniyatlariga, mehnat va ishlab chiqarish bozorining holati va ehtiyojiga, kasbiy qiziqish va moyilliklarning shakllanishiga, shaxs va kishining istagi, xohish-irodasi, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablar hamda zamonaviy kasblarning istiqboli va mazmuni to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, targ'ibot qilish chora-tadbirlaridir.

Kasbiy maslahat - kasbni tanlash, egallamoqchi bo'lgan kasbni yoki faoliyat turini o'zgartirishda yordamga muhtoj bo'lgan kishilarning individual-psixologik xususiyatlari, shaxsiy fazilatlari, kasbiy qiziqishlari, moyilligi, sog'ligi va mehnat bozori ehtiyojlarini o'rganish asosida psixolog-maslahatchi bilan ilmiy tashkil etilgan o'zaro muloqot tizimidan iborat[4].

Kasbiy tanlov va saralash bu – kasbiy faoliyatning alohida turlariga yaroqlilik darajasini aniqlashga yo'naltirilgan shaxsning psixofiziologik xususiyatlari yoki aniq bir kasbga bo'lgan psixofizioligik me'yoriy talablar asosida shaxsni har tomonlama o'rganish tizimidir.

Kasbiy moslashish bu – ishlab chiqarish va mehnat bozorida kasbiy faoliyatning ijtimoiy va psixologik, tashkiliy-texnik sharoitlariga shaxsni moslashtirishga, uni muvaffaqiyatli ravishda kasbni egallashi uchun shart-sharoitlarni yaratishga yo'naltirilgan choralarning majmuali tizimidir[3].

Professiografiya – axborot, tashxis, korreksiyalovchi, shakllantiruvchi kasbiy tashxis, (shaxsni o'rganishning psixologik, psixofiziologik, tibbiy va boshqa usullarining majmui) kasbga yo'naltirishning axborot va metodik ketma-ketligining asosi hisoblanadi.

Kasbga layoqatni aniqlash. Bu jarayonda o'quvchining sog'ligi, dastlabki tayyorgarlik darajasi, psixologik va fiziologik xususiyatlariga ko'ra, qaysi kasb talablariga mos kelishi aniqlanadi. Kasbga layoqatni aniqlash maxsus tashkil etilgan tadqiqot jarayoni bo'lib, bu ish bilan maxsus ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish tashkilotlari shug'ullanadi.

Kasbga ko'niktirish. Bu yosh ishchi mutaxassislarni unumli mehnatga sharoitiga moslashtirish. Bu bevosita ish o'rinlarida, amaliy faoliyatida hal qilib boriladi. Kasbga ko'niktirishda yosh ishchi yoki mutaxassislarning mazkur korxona va tashkilot, muassasa haqida dastlabki aniq ma'lumotlarga ega bo'lishi va tasavvur etishi, shaxsiy manfaatlarning mehnat davomida qondirib borilishi katta ahamiyatga ega. Kasbga ko'nikish o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash bo'yicha amalga

oshiriladigan ishlarning yakunlovchi qismi hisoblanadi.

Shu o‘rinda kasbga yaroqlilik tushunchasiga e’tibor qaratamiz. Kasbga yaroqlilik – odam bilan uning ishi, kasbi o‘rtasidagi o‘zaro muvofiqlikdir. Ayni mana shu muvofiqlik bo‘lgan taqdirdagina “odam-kasb” formulasini ro‘yobga chiqarish imkoni tug‘iladi.

1. Yaroqsizlik (aynan bitta kasb turiga yaroqsizlik). Bu vaqtincha yoki amaliy jihatdan ro‘yobga chiqmaydigan bo‘lishi ham mumkin. Shaxslarning salomatligi yomon bo‘lganda, biror bir sohadagi ishga o‘sha shaxsning sog‘lig‘i, shifokorlarning nuqtayi nazariga qaraganda to‘g‘ri kelmaydi deb topilgan hollarda kasbga yaroqsizlik to‘g‘risida gapirish mumkin.

2. Yaroqlilik (u yoki bu kasb yohud guruhga yaroqlilik). Kasbga yaroqlilikning ushbu darajasi shu bilan ajralib turadiki, bunda biror sohadagi mehnatga nisbatan to‘sqinlik qiluvchi sabablar bo‘lmaydi, lekin ayni mahalda kishida mazkur kasbga yaqqol ko‘zga tashlanib turgan xohish va mayllar ham bo‘lmaydi. Kasb tanlagan kishilarga **“Siz mana shu kasbni tanlashingiz mumkin. Ajab emas, siz shu sohada yaxshi mutaxassis bo‘lib yetisharsiz”** - deb tasalli beriladi. Bu jihatdan kasbga yaroqlilik darajasini ham yuqoridagi ta’rifdan bilib olish mumkin.

Mehnat turlari: elektrlashtirilgan va avtomatlashtirilgan mehnat.

1. Texnologiya predmeti va mahsuloti. 2. Ishni bajarishda ijodkorli bilim va mahorat. 3. Ish sharoiti va joyi. 4. Mehnat rejimi va dam olish rejimi. 5.Kasbning sog‘liqqa to‘g‘ri kelmasligi haqida meditssina xulosasi. 6. Shaxsning irodaviy ishchanlik va boshqa fazilatlariga qo‘yiladigan talablar. 7. Kasbning shaxsumumiy madaniyat darajasini shakllanishiga, aqliy qobiliyatlarini rivojlanishi. 8. O‘quvchilarni kasb o‘rgash yo‘llari, kasb-hunar maktabga yo‘nalishlari va ularga qabul qilish sharoitlari. 9. Professional o‘sish istiqbollari. 10. Turdosh kasblar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Bugungi kunda o‘sib kelayotgan yosh avlod ushbu maqolada yoritilgan ma’lumotlarga asoslanib kasblar, ularning turlari, bosqichlari, kasb tavsiflari haqida atroflicha ma’lumotga ega bo‘ladilar. Hozirgi vaqtga kelib yoshlar to‘g‘ri kasb tanlashning mazmunli tavsifini ko‘proq bilishi hamda bo‘lg‘usi mehnat faoliyati jarayonidagi turli vazifalar va munosabatlar to‘g‘risida imkon qadar to‘laroq ma’lumotga ega bo‘lishlari zarur. Bo‘lajak kasb egalarining qanday kasb egasi bo‘lishi kasblar haqidagi umumiy va zaruriy ma’lumotlarga ham bog‘liqdir.

XULOSALAR. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirishda kasb va kasb turlarining mazmun-mohiyati va istiqbollari haqida ma’lumotlar bilan boyitish, kasbga yo‘naltirish ishlarini rivojlantirishning asosiy bosqichlari, kasbiy axborot, kasbiy maslahat, kasbiy tanlov va saralash, kasbiy moslashish jarayonlari haqida yoshlarga to‘g‘ri tushunchalar berish ularning hayot yo‘lini to‘g‘ri tanlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida farmonining 37-maqsadi.

3. X.Ch.Dusyarov va boshqalar. Kasb hunarga yo‘naltirish. Darslik. “Impress media” nashriyoti. 2023-yil.

4. X.Ch.Dusyarov. Kasbga yo‘naltirish diagnostikasi. O‘quv qo‘llanma. “Lesson press” MCHJ nashriyoti. 2023-yil.

5. Sharipov Sh. S va boshqalar. Texnologiya VII sinf o‘quvchilari uchun darslik. - T.: Sharq, 2017. - 240 b.

6. Sharipov Sh.S. Talabalar ixtirochilik ijodkorligini shakllantirishning pedagogik sharoitlari. (Mehnat va kasb ta’limi fakultetlari misolida): Ped.fan.nom. diss. 2000. -205 b.